

BAYRAMSIZ KUNLAR

Ubaydullayeva Jamila Xurramovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi

Ko'charova Dildora Karim qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim va sport
tarbiyaviy ishi yo'nalishi talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Erkin A'zamning "Bayramdan boshqa kunlar" qissasining g'oyaviy mafkurasi haqida fikr yuritildi. Qissaning ijodkor ijodida va o'zbek adabiyotida qanday o'rin egallashi va ijodkorning xarakter yaratish mahorati borasidagi fikrlar bayon etildi.

Kalit so'zlar: milliy til, xarakter tasviri, Safura, kesatiq, fosh etish, ruhiy iqrar.

Erkin A'zam – hozirgi o'zbek adabiyotida qissanavis, hikoyanavis, kinossenarist, dramaturg sifatida yaxshi tanilib ulgurgan va mavqega ega ijodkor. Adib hamisha inson ruhini eng go'zal ziynat deb biladi va asarlarida inson ruhiyatini yorqin tasvirlashga intiladi, buning natijasi o'laroq asarlari eskirmadi, zamon tanlovidan qolmadi. Filologiya fanlari nomzodi, dotsent Normat Yo'ldoshev ta'biri bilan aytganda – Erkin A'zam – ruhiyat musavviridir. Qahramonlarining ruhiy holatini maromiga yetkazib tasvirlashi ijodkorning qissalarida birdan ko'zga tashlanadi. "Bayramdan boshqa kunlar" qissasi adibning eng ko'p o'qilgan, munosabat bildirilgan asarlaridan biridir. Asar xuddiki roman tamoyillari asosida yozilgandek tasavvur qoldiradi. Adib bu qissa markaziga hayotdan adashgan, yo'lini yo'qotgan, yashash hoyu-havasdan, kayfu-safodan iborat deb o'ylovchi yengiltabiat insonlarni qo'yib, ularning o'y-fikrlarini maromida ko'rsata olgan. Yozuvchi asarlari bilan tanish o'qirmanga ayonki, uning uslubida kesatiq, piching, ichki ziddiyat va kutilmaganda xarakter orqali fosh qilish yetakichi vosita hisoblanadi. Qissa voqealari markazida Safura, Bakir, Barno, Bargida, Basira, Afro'za Kamolovna, Mimo, Chinnibek, Ukkibekkov va boshqa bir qancha obrazlar turadi. Bakir asardagi juda murakkab obraz. U bir qaraganda yengil-yelpi hayot shaydolarining gumashtasidek bo'y ko'rsatsa, bir jihatdan ulardan bezgan, mutlaqo ozrulari sof, samimiy inson sifatida gavdalanadi. Uning halol va mard insonligi bazmlar "qirolichasi" Safuraga bo'lgan munosabatlarida, undan hech nima ta'mador bo'lmasligida, avtobusini to'xtatib akt tuzish jarayonida bir "xolis" yigitning Ukkiboyevga nimadir qistirib ishni bosdi-bosdi qilishni taklif qilganida jig'ibiyron bo'lib nega uzr so'rayman nega biror narsa qistiraman, hech qanday aybim yo'q deya qat'iy turib olgan jarayonlarida ko'rish mumkin. "Qissadagi asosiy qahramonlardan biri – Safura. U Bargida, Barno, Chinnibek, Basiralarning do'sti. Asarda xatti-harakatlar, ziddiyatlar, murakkabliklar, ziyofatlar markazida Safura turadi. Safura –

doimiy navqironlik ramzi: uning yoshi hecham yigirma oltidan oshmaydi. Nima demasin, “bravo”, “genatsvali”, “okey”, “salyut”, “mersi”, “chi gap”, “oybay”, “se lya vi”, “gudbay”, “chao”, “raftem”, degan so‘zlarni qo‘shib aytadi. Safura biron joyda yolchitib ishlamagan. Bir-ikki ko‘rsatuvda rejissyorga yordamchilik qilgan. “Ijodi”ning yulduzli oni shu, xolos. Ammo baxil emas. Ikki xonali bezatilgan uyini Bargidaga berib qo‘ygan. Misha tog‘a (Muftilla), Jordes, yana allakimlar Safura tufayli Bargidalar to‘dasiga qo‘shilib qolgan. Maishatboz, o‘yin-kulgiga ishqiboz, shahvoniy hayotga mukkasidan ketgan odam borki, Safura uyushtiradigan bazmlarga shamga intilgan parvonadek yopishib kelaveradi. Safurada to‘pori Muftilladan, ikki dunyosi kuygan Mimodan, lo‘ttiboz Chinnibekdan, bayramparast Barnoyu Bargidalardan, hatto bo‘sh-bayov, yengiltakkina Bakirdan farq qilaroq, o‘rtanadigan qalb bor, muqaddas olov bor. U o‘ynaydi, kuladi, birovlariga yaxshilik qiladi, biroq aldanayotganini teran anglaydi. Muhimi, vaqti-vaqti bilan muhitiga sig‘may qoladi, “bayram” to‘la kunlarini dil-dilidan la‘natlaydi. Bakir bilan suhbatda Safura “yoriladi”: “Boyagi joyni ko‘rdingmi? U yerdagilarning bari Safuraning bolalari, Safuraning gunohlari. Safuralarni yer yutsin! – U tuyqusdan tagidagi toshni mushtlab hiqillay boshladi. – Men toshman, mana shu toshman! Qani, birato‘la toshga aylanib qolsam!”.

Safura kapalaklar hayotini, bayramli kunlarni, bargidalarni, o‘zini fosh etadi. Mimo, Misha tog‘a, Jordes, Anvar xo‘rozlar ko‘ngilochar kechalarga, kayf-safoga ishqiboz. Safura iqroriga: “Boshida hammasi yaxshi ko‘radi, hammasiga yoqasan. Bilamiz – nima uchun! Keyin esa... Ey, hammang bir go‘rsan!”. Bargidalar to‘dasini Safura tark etib ketadi. Bakir Safurani sog‘ina boshlaydi”[5]. Bakir Safurada oz bo‘lsa hali vijdon borligini biladi, shuning uchun ham uni sog‘inadi. U jirkanch muhitga Safura yarashmasdi va oxirida qalbiga quloq soldi, hammasini tark etdi, hashamdor uylarni ham, shohona yashashni ham ikkiyuzlama, yolg‘onchi birovning haqqini ikkilanmay o‘zlashtiradigan, o‘zidan boshqalar haqida o‘ylab ham ko‘rmaydigan boyvachchalar davrasini ham.

Asar qahrmonlaridan eng obro‘lisi ayni vaqtda eng olchog‘i Chinnibekdir. U Bakirning bojasi. Osiyo va Yevropa orasida qatnab yuradigan korafta shaxs. U shu qadar gapdon, shu qadar so‘zamol unga tan bermaslikning iloji yo‘q.

Erkin A‘zam uslubiga xos yana bir jihat – asar qahramonlariga asarda bajaradigan mavqeyidan kelib chiqib ism tanlashidir. Chinnibek – mol dunyoga xirs qo‘ygan, birovni haqqini o‘ylamay-netmay yeb huzur tuysa-da, o‘zini chinnidek toza, qadrlı, inson deb o‘ylovchi obrazdir.

Ukkiboyev ukki kabi yirtqich, ovchi. U hech kimni – kambag‘alni ham boyni ham; g‘irromni ham halol mehnatkashni ham ayamay ov qiluvchi, mansabini suiste‘mol qilgan obrazdir.

Muallif qissaning bosh mavzusi – shahvoniy mayllar va balandparvoz istaklar yo‘lida tubanlik botqog‘iga botganlarning manaviy quruqshagan qiyofasini poyma-poy fosh qilib borar ekan Chinnibekning uyida bo‘layotgan bazmlarning birida bir o‘zlari kabi dunyo quliga aylangan, bir mansabdorning ikki bolasi bilan ajrashib kelgan qiziga uylanib olib, ko‘cha-kuyda qaynotasining nomini ham qo‘yib falon akademikning keliniga uyandim deb maqtanib yurgan

“shovvoz”ni latifa qilishayotganda bir epizodik obraz nutqi diqqatni tortadi: “ – Ahmoq ekan! – dedi Zirakli xonim. – O‘zining xotini chiroyli edi, tanirdim. Bunisi bir bedavo! Shodlanoymidi ismi? – U negadir Safuraga savolomuz qarab oldi. – Ha-a, shunaqa. Uyda “Shodlanka” deb chaqirisharkan. Keyin, institutda “Shotlanka” bo‘lib ketdi. Qizig‘-a, Shodlanka? A, Barnosh, esingdami, birga o‘qiganmiz-ku?” [1,176]. Bu yerda ham ismni qisqartirish orqali Zirakli xonim maqtayotgan qahramonimizning aslida qanaqa inson bo‘lganligiga nozik ishora bor. Qissada mustaqillikdan so‘ng bir muddat o‘zini qay ko‘chaga urarini bilmay, milliylikdan, o‘zlikdan, din-u diyonatdan uzoqlashgan, halolni haromdan ajratishdek fazilatdan uzilib qolgan, manaviy tanazzulga yuz tutgan insonlar hayoti tasvirlangan. Ularning nutqlari ham kishini hayratga soladi. Qaysi tilda so‘zlayotgani o‘ziga ham qiziq emas. Sof ona tilida so‘zlash ular uchun allaqachonlar unut bo‘lib ketgan. Ammo ona tili shunday qudratga egaki, u bilan quvonchingni, shodligingni, qayg‘ungni, hasratingni – barini birdek ifodalaysan, ifodalaganda ham samimiy ifodalaysan. Bunday holatni Safura internatdan bolasini ko‘rib qaytayotganda Bakirning oldida hayotiy haqiqatlarini, yolg‘iz qolganda ham tan olishga iymanaladigan haqiqatlarni, tan olayotganida ko‘rish mumkin: “U xuddi o‘ziga o‘zi gapirgandek yoki Munkar-nakir huzurida istig‘for keltirayotgandek, odam yolg‘iz qolganida ichida bo‘lsin e’tirof etmoqqa iymanaladigan achchiq haqiqatlarni ham ro‘yirost, yashirmay-netmay, shafqatsizlik bilan aytib nola qilardi. Bakirni battar hayratga solgani – Safura birorta begona so‘z qo‘shmay, sof o‘zbek tilida so‘zlardi, ta’sirli so‘zlardi. Balodek! Tili uzilib tushgani yo‘q. Ona tili shunday vaqtda kerak bo‘lar ekan, Safuraxon!

E, nimasini gapirsin! Endi bari befoyda! Boshqatdan boshlamoqning esa iloji yo‘q, Hayotning xomakisi bo‘lmaydi, u yagona nusxada, betakror, deydilar-ku!” [1, 266]. Asar nega “Bayramdan boshqa kunlar” deb nomlangan? Ijodkor bayramdan boshqa kunlar deya vijdon oldida hisob berib o‘zni taftish etiladigan kunlarni nazarda tutyaptimi? Bayram – nafsning tantana kunlarimi? Asl bayram vijdoni oldida mardlarcha turib o‘z aksiga boqib, qalb to‘ridan, vijdonning tub-tubidan kelayotgan savollarga javob izlagan kun emasmi? Bir so‘z bilan aytganda, asar millat kishilarining manqurtlashuvidan, milliy tilning begonalashuvidan ogohlantiruvchi, o‘zbek millatining bongi bo‘ldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Foydalanilgan Adabiyotlar Ro‘yxati

1. Аъзам Э. Кечикаётган одам: Қиссалар. – Т.: Шарқ, 2002. –446 б.
2. Тошмухамедова Л. Бадий асарда кулгунинг эстетик вазифаси// Ўзбек тили ва адабиёти. 2004. №2. Б.18
3. Аъзам Э. Гули-гули: қиссалар, киноқиссалар, драматик асар. –Т.: Фафур Фулом номидаги нашриёт – матбаа ижодий уйи, 2009. –230 б.
4. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. –Т.: O‘qituvchi, 1986. 408 b.
5. Rasulov A. Jasur qalam sohibi, “Sharq yulduzi” jurnalining 2010-yil, 5-soni